
Buvayda tumani IIB JXX Probatsiya bo'linmasi xisobida turgan nazorat ostidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida profilaktik-ogoxlantiruv tadbiri o'tkazildi.

Buvayda tuman hokimligi majlislar zalida Buvayda tumani IIB JXX Probatsiya bo'linmasi xisobida turgan nazorat ostidagi shaxslar bilan ochiq muloqot o'tkazildi. Muloqotda Farg'ona viloyati IIB boshlig'ining o'rinbosari podpolkovnik F.M.O'sarov, Farg'ona viloyati IIB Probatsiya boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik R.A.Xoldorov, JIB Buvayda tumani A.B.Minojiddinov, tuman prkurori urinbosari O.Qodirov, tuman IIB boshlig'i o'rinbosarlar E.Madaminov va A.Umurzoqovlar hamda Buvayda tumani IIB JXX Probatsiya bo'linmasi xisobida turgan nazorat ostidagi shaxslar qatnashdilar.

Tadbirda Buvayda tumani IIB JXX Probatsiya bo'linmasi xisobida turgan nazorat ostidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida profilaktik-ogoxlantiruv tadbiri o'tkazildi. Bundan tashqari jazo o'tash tartib-qoidalariga amal qilib, tuzalish yo'liga o'tgan 3 nafar shaxslar muddatidan oldin shartli ozod qilindi. Jazo o'tash tartib-qoidalariga amal qilmasdan, o'ziga berilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmasdan, tuzalish yo'liga o'tmasdan jazo o'tashdan bo'yin tovlab yurgan 2 nafar shaxsning ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan maxrum qilish jazosiga almashtirildi.

Tadbir davomida 67 nafar maxkumlar bepul tibbiy ko'rikdan o'tazildi, tadbirda mexnat yarmarka tashkil etilib 45 nafar mahkumlarga yo'llanmalar berildi.

2023-08-19 09:24:36